

**TARJIMA QILISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TARJIMA TURLARI VA USULLARI****Igamberdiyeva Laylo G'ulomjon qizi**

Termiz davlat universiteti Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6523124>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada tarjima turlari,tarjima jarayonida qo'llaniladigan tarjima usularining vazifasi haqida.Tarjima turlari va usullaridan foydalanish tarjima sifatini oshiruvchi vosita.Shu bilan birgalikda asliyat tilidagi birliklarning tarjima tilida o'z aksini topishi juda muhim hisoblanadi.Bunda esa tarjima usullarining alohida o'rni va vazifasi bor.Tarjima uchun muhim bo'lgan tarjima usullari va tarjima turlari matnlarni yoki asarlarni tarjima qilish jarayonidagi eng kerakli bo'lgan tarjimaning asosiy bo'ginidir.

**Kalit so'zlar:** yozma va og'zaki tarjima,badiiy va ilmiy tarjima,sinxrom va ketma-ket,adekvat,adaptatsiya,antonomik,kalka,modulyatsiya,transliteratsiya.

**TYPES AND METHODS OF TRANSLATION USED IN THE TRANSLATION PROCESS**

**ABSTRACT:** This article is about the types of translation, the role of translation methods used in the translation process. The use of translation types and methods is a tool to improve the quality of translation. and has a function.Translation methods and types of translation that are important for translation are the main link in the translation process that is most needed in the process of translating texts or works.

**Keywords:** written and oral translation, literary and scientific translation, synchronous and sequential, adequate, adaptive, antonymic, kalka, modulation, transliteration.

**ВИДЫ И МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА**

**АННОТАЦИЯ:** Эта статья о видах перевода, роли методов перевода, используемых в процессе перевода.Использование видов и методов перевода является средством повышения качества перевода и имеет функцию.Методы перевода и виды перевода, которые важными для перевода являются основное звено переводческого процесса, наиболее необходимое в процессе перевода текстов или произведений.



**Ключевые слова:** письменный и устный перевод, художественный и научный перевод, синхронный и последовательный, адекватный, адаптивный, антонимичный, калка, модуляция, транслитерация.

### KIRISH

Tarjima bu qayta yaratish san'ati, yuksak badiiy ijoddir, ijod bo'lganda ham tarjima muallifidan izlanish, mehnat, sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida mashaqqatli ish olib borishni talab qiladigan ijoddir. Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng, chunki "Tarjima nima?" degan savolga turli soha vakillari turlicha javob berishadi. Bir kishi tarjimani bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tilga o'girish desa, boshqa bir kishi uni bir tilda bayon qilingan fikrni o'zga tilda so'zlovchi kishilarga tushuntirib berishdan iborat deb biladi. Uchinchi bir kishi fikricha esa, kinofilmlar ham tarjima qilinadi, demak tarjima bu bir tilda rol ijro etayotgan aktyorning nutqini ikkinchi uchinchi va hokazo tillarga o'girish demakdir. Tarjimaga lingistik tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yondashib, quyidagicha ta'rifberish mumkin: Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga keltirilgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu 8 yo'l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarning mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi. Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy alosalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Tarjima to'g'risida bildirilgan yuqoridagi mulohazalarning barchasida jon bor. Chunki ularning har biri tarjimani bir tomondan ta'riflab, bu haqdagi umumiy tushunchani to'ldirishga xizmat qiladi. Demak, tarjima – ko'p sohali, sertarmoq, murakkab faoliyat. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiylaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiqoydin tasavvur etamiz. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushunchalar hosil bo'ladi. [1]



### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. [2]

Tarjima jarayoni 2 ga bo'linadi:a) Ma'lum matnni bir tilidan, ikkinchi tilga o'girish jarayoni; b) Yakunlangan tarjima

Asliyat tili(Asar tili )- original til, manbaa tili, birinchi til, asar bitilgan til, asarning ona tili, qaysi tilda yaratilgan bo'lsa, u uning asliyat tili hisoblanadi.

Tarjima tili - matnni o'girish uchun tanlangan til, asar o'girilayotgan til, odatda, tarjimonning ona tili. [3]

Shunday ekan tarjimon tarjima qilish bilan birga shaxsiyati va qobiliyatları ustida parallel ravishda doimiy ishlashiga to'g'ri keladi. Tarjima qilish jarayoni o'z navbatida ikkiga bo'linadi ular:bevosita va bilvosita tarjima

Bevosita tarjima-asliyat(orginal asar)tilidan bevosita amalga oshiriladi.

Bilvosita tarjima-tarjimadan tarjima.Bunda asliyat tilidan qilingan tarjimadan amalga oshirilgan tarjima yoki uchinchi tildan amalga oshirilgan tarjima nazarda tutiladi.Buni rus tarjimashunosligida *перевод из иторых рук вторичный перевод* terminlari bilan ataladi. [4]

### **NATIJALAR**

Tarjimada qiyosiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalilanladi. Tarjimada qiyosiy tahlildan maqsad, tarjima jarayonidagi umumiyl qoidalarni o'rganishdir. Tarjima nazariyasida qiyosiy tahlil so'z va gaplarning qiyosiy tahlil natijasi sifatida qabul qilingan fakt (dalil)larga asoslangan. Ingliz tilidagi so'zlar bilan boshqa tildagi so'zlarning turli xil xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ingliz va



boshqa tillardagi so'zlarning turli xil xususiyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. So'z shakli, o'zaro bog'langan so'zlarning semantik tuzilishi va ulaming nutqda ishlatilishi turli xil tillarda turlichadir. Har bir tilning o'zining leksik tuzilishi mavjuddir. Lekin hamma ma'nolarida emas, ya'ni ingliz tilidagi so'zning ma'nosini ifodalovchi o'zbek tilidagi so'zni topish mumkin. [5]

### **MUHOKAMA**

Tarjima turlari shakliga ko'ra 2 ga bo'linadi:yozma tarjima va og'zaki tarjima.Yozma tarjima ham o'z navbatida badiiy,ilmiy va boshqa soha tarjimalari.Og'zaki tarjima esa sinxrom va ketma-ket tarjimaga bo'linadi.Tarjima turlari bilan bir qatorda tarjima usullariga juda muhim hisoblanadi.Tarjima usullarining bir nechta turlari mavjud.Ular quyidagilar:

Adekvat tarjima-(rus adekvatnoe lot.o'zbekchada tenglashtirish,teng,to'la mos keladigan,bir-biriga(tarjimaning asliyatga mos kelishi nazarda tutiladi)aynan o'xshagan tarjima.Asl nusxani to'liq aks ettiruvchi,unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima diyiladi. [4]

Adaptatsiyali tarjima-(lot.adaptatio;yengillashtirish,soddalashtirish)asliyatdagi asar yokiboshqa matnning asosan syujet chiziqlariga urg'u berib,uning ma'no va uslubiy jihatlarinie'tirofdan qo chirish orqali soddalashtirilgan holda amalga oshirilgan tarjima. [4]

Antonimik tarjima-(antonimi-grek.ant(i)provit-onomaniya)-shakli bir-biriga zid,ammo ma'nolari monandbirikmalarga asoslangan tarjima.Masalan,rus tilida "nima bo'lsa shu bo'lsin", "mening parvoyimga kelmaydi"degan ma'noda *хомъ трава не pacmu* degan frazeologik butunlik ishlatiladi.Uni o'zbek tilida *menga desa g'ovlab ketsin* deb o'giriladi.Demak rus tilida "menga desa o't o'ssin" desa,o'zbek tilida "g'ovlab ketsin".Birikmalar aks ma'noda o'girilgan bo'lsa ham mazmuni bir -biriga monanddir. [4]

Transliteratsiya-1)chet tilidagi so'zning grafik obrazini tarjima tilidagi harflar vositasida o'girishga asoslangan tarjima usuli,2)bir alifbo sistemasidagi so'z yoki matnni (Asliyat tili)ikkinchi tili alifbosi sistemasi(tarjima tili)bilan almashtirish,3)chet tilidadi so'zni ona tili alifbosi qoidalari vositasida o'girish.Tarjima matnini fuqarolashtirish. [4]



Transkriptsiya-1)asliyat tilidagi so'zni tarjima tili tovushlari vositasida aniq aks ettirishga asoslangantarjima usuli,2)o'zga til matnidagi so'zlarni tarjima tili alifbosidagiharflar talaffuz qoidalari asosida ifodalash,3)fonetik printsipga asoslangantovush vositasida tarjima qilish usullaridan biri. [4]

Transpozitsiya-1)asliyatdagi lisoniy birlikning mazmunini saqlagan holdauning shaklini o'zgartirgan holda tarjima qilish,2)bir janrdagi matnni boshqa janr bilan tarjima qilish.Jumladan,she'riy matnning nasriy bayoni.

Kalka-so'z yoki so'z birikmasini harfma-harf(hijjalab)tarjima qilish bilan o'girish.Uning quyidagi turlari bor:

1. *Leksik kalka-tarjima tilida asliyatdagi qoidalar bo'yicha yasalgan so'z.*
2. *Sematik kalka-so'zning chet tilidagi ma'nosi ta'siri bilan paydo bo'lgan ifodasi.*
3. *Frazeologik kalka-chet tilidagi birikmani qismlarga bo'libhijjalab(harfma -harf) tarjima qilish. [4]*

Modullashtirish-tarjima jarayonida asliyatd ifodalangan matnga muqobililikni taminlash maqsadida tarjimon nuqtai nazaridan turib o'zgartirishlar kiritish.Bunda asliyatdagi xususiy holda kelgan birlik umumlashtirilishi abstract narsa konkretlashtirilishi mumkin,shuningdek passiv konstruksiyalar aktivlashtirilishi ham uchraydi.Bu jihatnim terminologiyaga nisbatan qo'llanmaydi. [4]

Erkin tarjima-bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bundan tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli xillari mavjud. Sharq klassik she'riy tarjimasiga kelganda, erkin tarjima shunda ko'rindiki, bu usulni qo'llagan tarjimon aksariyat hollarda, assiy mavzu va g'oyadan chetga chiqmagan holda, muallifning bayon tarzida she'riy san'atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarini chetlab o'tib, ular o'rniga o'zi ijod qilgan san'atlari va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panohida o'z she'rimi taqdim etgan, o'zining ijodiy manerasini ko'rsatgan bo'ladi. Ijodiy tarjima esa asar g'oyasi va badiiy o'ziga



xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. [6]

Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni" taqozo etadi. [6]

So'zma-so'z va hijjaviy tarjima. Ya.I.Resker "doslovnii" va "bukvalniy" terminlarining ma'nolari boshqa-boshqa bo'lib, ularni bir-biri bilan aralashtirish yaramasligini alohida qayd etgan edi: "so'zma-so'z va hijjalab tarjima qilish degan ikki xil tushunchani aralashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish – turli-tuman tillarning so'zлari о'rtasidagi nuql tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir. So'zma-so'z tarjima esa "so'zni-so'z" bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir".[6]

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki,tarjima turlari va usullari tarjima jarayoni uchun juda muhim vosita hisoblanadi.Tarjima jarayonida tarjima usullaridan foydalanish juda muhim. Tarjima usullari tarjima sifatini oshirish va asliyat tilidan tarjima qilinayotgan tarjimaning asl ma'no-mazmunini saqlab qolish uchun yordam beradi.Tarjima sohasida ish olib borayotgan har bir tarjimonning tarjima turlari va tarjima usullaridan xabardor bo'lishlari juda muhim sanaladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kh-davron.uz/tag/tarjima-sanati>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima>
3. J.K.Solijonov "Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar"
4. Zohidjon Sodiqov va Dilrabo Abduraxmonova "tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi"



5. Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi, Akademika NTM rahbari, tarjimon, ilmiy izlanuvchi Solijonov Juraali Kamoljonovich

6. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari

7. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560).  
<https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>

8. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI" ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>

9. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

10. Igamberdiyeva Laylo G'ulomjon qizi, & Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). DAFNA DUMORIER QALAMIGA MANSUB "REBEKKA" ("REBECCA") ROMANIDAGI TOPONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUOMMOLARI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(4), 316-319. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6504239>

11. DAFNA DUMORIERNING "REBEKKA" ("REBECCA") ROMANIDAGI ANTROPONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUOMMOLARI  
<http://www.myscience.uz/index.php/nuu/article/view/11>